

## IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI USTIDAN SUD NAZORATIGA OID XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Nurmatov Sunnatillo Uzoq o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

nurmatovsunnatillo787@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada ijro hokimiyati organlari ustidan sud nazorati tushunchasi, shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari, uning huquqiy asoslari tahlili hamda tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlarini tadqiq etamiz. Ijro hokimiyati organlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlarini o`rganishga bag`ishlangan. Maqolada ijro hokimiyati organlari ustidan sud nazoratiga oid xorijiy mamlakatlar tajribasi: qiyosiy-huquqiy tahlilga qaratilgan ilmiy asoslangan va muhim amaliy ahamiyati kasb etuvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so`zlar:** Sud nazorati, ijro hokimiyati organlari, huquqiy nazorat,adolat nazorati, qonun nazorati, huquqiy tartibot, faoliyat nazorati, o`zaro nazorat, qonunlariga rioya qilish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish, ijro hokimiyati, umumiy yurisdiksiya sudlari, qonun ustuvorligini ta'minlash, mansabdar shaxslar.

**Abstract:** In the article, we will study the concept of judicial control over executive authorities, trends in formation and development, the analysis of its legal framework, as well as the specifics of its organization. Dedicated to the study of priorities for improving the legal framework for the implementation of judicial control over executive authorities. The article develops proposals and recommendations on the experience of foreign countries regarding judicial control over the executive authorities: scientifically based and of significant practical importance aimed at comparative-legal analysis.

**Keywords:** judicial control, executive authorities, legal control, Justice control, law control, legal order, activity control, mutual control, compliance with laws, protection of citizens ' rights, executive power, courts of general jurisdiction, ensuring the rule of law, officials.

**Аннотация:** В статье мы исследуем понятие, тенденции становления и развития судебного контроля над органами исполнительной власти, анализ его правовых основ и специфику организации. Посвящена изучению приоритетных направлений совершенствования правовых основ осуществления судебного контроля над органами исполнительной власти. В статье представлен опыт зарубежных стран по судебному контролю над органами исполнительной власти: разработаны научно обоснованные и приобретающие важное практическое значение предложения и рекомендации, направленные на сравнительно-правовой анализ.

**Ключевые слова:** судебный надзор, органы исполнительной власти, правовой надзор, надзор за правосудием, надзор за законом, правопорядок, надзор

за деятельностью, взаимный контроль, соблюдение законов, защита прав граждан, исполнительная власть, суды общей юрисдикции, обеспечение верховенства закона, должностные лица.

## KIRISH

Demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan sud-huquq tizimini chuqur isloh etish va inson huquqlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, uning qonunchilik asoslari ham Konstitutsiyamiz tamoyillari va qoidalari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqilib, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsipi, insonparvarlik g‘oyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Konstitutsiyamizda sud alohida hokimiyat, sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi, sudyalar mustaqildirlar, ular faqat qonunga bo‘ysunadilar, sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

## II. METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tahlil qilish ijro hokimiyati sohasida qonun ustuvorligini mustahkamlashda sud nazoratining o‘rni, sud nazoratining asosiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu nazoratning mazmuni, mohiyati va huquqiy shakli masalalari tahlil qilinadi. O‘zbekistonda ijro etuvchi hokimiyat sohasida sud nazoratini takomillashtirish zarurati, shuningdek uning huquqiy ahamiyati to‘g’risida xulosalar chiqariladi. Sud nazoratining huquqiy shakli, nazorat jarayonining qonuniy asoslariga asoslanadi. Ijro hokimiyati qarorlariga qarshi shikoyat qilish imkoniyati, bu jarayonning bir qismidir va sudlar bu qarorlar ustidan nazorat o‘rnatish imkoniyatiga ega.

## II.NATIJA

Ijro hokimiyati faoliyati yuzasidan sud nazorati turli omillar ta’sirida shakllanadi. Ayni paytda, turli xil huquqiy tizimlarda sud nazoratining hajmi o‘zaro farqlanadi. Masalan, nafaqat ijro hokimiyati organlari qarorining qonuniyligi, balki faktlarni tahlil etish va ma’muriy qarorlarning maqsadga muvofiqligini tekshirish kabilarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Shu o‘rinda kontinental huquq tizimiga mansub davlatlar Fransiya va Polshada sud nazorati o‘ziga xoslikka ega. Bu o‘ziga xoslik sud nazorati Fransiya va Polshadagi kabi maxsus ma’muriy sudlar tomonidan amalga oshirilishida ifodalanadi.

Ayni paytda sud nazoratining shakl va usullarini tegishli davlatning qaysi huquqiy tizimga mansubligini asosiy mezon sifatida qaramaslik kerak. Masalan, kontinental tizimga mansub Vengriyada ijro hokimiyati faoliyati yuzasidan sud nazorati fuqarolik sudlarining maxsus bo‘linmasi tomonidan olib borilsa, umumiy huquq tizimiga kiradigan Buyuk Britaniyada ham sud nazorati fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Muhimi sudlarning qanday tashkil etilishi emas, balki sudlarning o‘z funksiyalarini amalga oshrishda qanchalik mustaqil ekanlidir. Masalan, Fransiya ma’muriy sudi tashkiliy jihatdan ma’muriyat (Davlat Kengashi) ning tarkibiy

tuzilmasi bo'lishiga qaramay, ushbu sud tomonidan olib boriladigan nazoratning ko'lami va uning mustaqilligi kengligi bilan ajralib turadi.[1]

Xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra Germaniya, AQSH, Rossiyada Ma'muriy yustitsiya uch xil modelda tashkil etilganligini ko'rish mumkin. Ya'ni Ma'muriy yustitsianing umumiy, kvazi, maxsus sudlov shakllari amal qiladi.

Germaniya sud tizimi: konstitutsiyaviy sudlar, umumiy sudlar (fuqarolik va jinoyat ishlari sudlarini o'z ichiga oladi), ma'muriy sudlar, mehnat sudlari, ijtimoiy sudlar, moliyaviy sudlarga bo'linadi. Germaniya sudlarining o'ziga xosligi ularning ixtisoslashganlidigidir. Masalan, ma'muriy sudlar moliyaviy, ijtimoiy va konstitutsiyaviy huquqbazarliklarda boshqa barcha huquqiy munosabatlар bo'yicha ishlarni ko'rib chiqadi, umumiy sudlar esa jinoiy, fuqarolik, oilaviy va mulkiy masalarga oid isharni ko'radi, mehnat sudlari ishchilar va korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni hal qiladi, ijtimoiy sudlar ijtimoiy xavfsizlikka oid ishlar, xususan, sog'liqni saqlash, sug'urta, pensiya va boshqa ijtimoiy ta'minotga oid masalarni hal etadi, moliyaviy sudlar esa soliq va yig'implarga taaluqli ishlarni ko'radi.[2]

O'zbekiston sud tizimiga Germaniyada ta'kidlangan sud tarmoqlarini kengaytirish va ixtisoslashtirish hamda ishni ko'rib chiqayotgan suda va xalq maslahatchilarining mavqeい hamda 'professional bilimiga qо'yladigan talablar oshirilishi tadbiq etilganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan yangi tahrirdagi «Sudlar to'g'risida» gi Qonunning 4-moddasi bilan sudlarga yuklatilgan vazifalar doirasi kengaytirildi.

Germaniya kabi Yaponiya tajribasi ham o'rganildi. Xususan, Yaponiyaning "Ma'muriy sud ishlarni yuritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy ishlarni birinchi instansiya sudlari sifatida okrug sudlari ko'rib chiqishishi, umumiy yurisdiktsiya sudlari (summary courts) jarima yoki boshqa yengilroq bo'lgan jazo tayinlanadigan huquqbazarliklar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishi kuzatildi.[3]

Rossiya Federatsiyasida ham ma'muriy yustitsianing umumiy sudlov shakli amal qiladi. Unga ko'ra ommaviy-huquqiy nizolar ixtisoslashtirmagan, ya'ni umumiy yurisdiktsiya sudlari tomonidan ko'rib chiqib hal etiladi hamda alohida qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bu boradagi odil sudlov Rossiya Federatsiyasining 2015-yil 8-martdagи Ma'muriy sud ishlarni yuritish to'g'risidagi kodeksiga asoslanib olib boriladi. Rossiya Federatsiyasida ma'muriy sudlarni tashkil etish bo'yicha takliflar berilib «2023-yilgacha bo'lgan davrda umumiy yurisdiktsiya sudlarini rivojlantirish va ularning faoliyatini tashkiliy tahminlashni takomillashtirish bo'yicha Dastur» tasdiqlangan.[4]

### III. MUNOZARA

Olimlardan A.Vlasov ixtisoslashtirilgan sudlargina ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rib chiqishi mumkinligini bildiradi.[5] Uning fikrini olimlardan A.Sapojnikov «ma'muriy sud larni tashkil etish qonun chiqaruvchining konstitutsiyaviy burchi bo'lib, bu konstitutsiyadagi qoidani

mustahkmlagan holda Rossiyani Umumyevropa standartlari darajasiga olib chiqadi» deya qo'llab quvvatlaydi. Olimlardan A.Chirinov sudyalarini ma'muriy ishlarga ixtisoslashtirishni taklif etib, Rossiya Federatsiyasida ma'muriy sudlarni tashkil etishning zarurati yo'q ekanini Angliya va AQSH singari dapvatlarda ixtisoslashgan ma'muriy sudlar bo'lmasa-da, bu davlatlarda inson huquqlarining himoyasi ixtisoslashgan ma'muriy huquq mavjud bo'lgan Germaniyadan kam darajada emasligi bilan izohlaydi.[6]

#### IV. XULOSA

Xulosa qilib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Sud nazoratining asosiy mazmuni ijro hokimiyati faoliyatining qonuniyligini ta'minlash usuli sifatida huquqiy hujjatlarga baho berish, qonun ustuvorligi, fuqarolar, tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishini aniqlash va hokazolardan iborat, buzilgan huquq va manfaatlarni tiklash choralarini ko'rishda, aybdorlarni javobgarlikka tortishda ko'rishimiz mumkin. Sud nazoratining huquqiy ahamiyati shundaki, u murakkab tuzilmaviy institut bo'lib, ijro hokimiyati sohasida qonuniylikning eng muhim kafolati, sud va ijro hokimiyati organlarining o'zaro hamkorligining yo'li hisoblanadi. Biroq, sud tizimining elementi sifatida ijro hokimiyati sohasida sud nazoratini takomillashtirish zarur. Ijro hokimiyati sohasida sud nazorati muammolari to'liq ishlab chiqilmagani ularni yanada chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Галлиган Д., Полянский В.В., Стариев Ю.Н. Административное право, История развития и основные концепции. –М.:Юристъ.2002. –С.334.
2. Сайдов А.Х.Хуқуқ метафизикаси, давлат ҳуқуқи, ҳуқуқ ва адабиёт.Тошкент.2016. -Б.176, 177.
3. Абдуллаев Р. Маъмурий судлар томонидан оммавий ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган ишларни кўриб чиқиш самарадорлигини ошириш масалалари.02.03.2020.
4. <http://pslrf.ru/2014/2/6.pdf>
5. Власов А.В. Какой будет административная юрисдикция? // российская юрисдикция.-2002.-№-11.-С.17.
6. Қосимов Б.Маъмурий юстиция вау ни ташкил этиш шакллари: миллий ва хорижий тажриба//Юридик фанлар ахборотномаси.2018 й.№2.-Б.22.

Internit saytlar:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.meRa-law.ru](http://www.meRa-law.ru)
3. [www.pravo.uz](http://www.pravo.uz)
4. [www.uz.spinform.ru](http://www.uz.spinform.ru)
5. [www.internit-law.ru](http://www.internit-law.ru)